

556.  
U-62

**A.K.URAZBAYEV, SH.I.IBROIMOV**

**AMUDARYO HOZIRGI DELTASINING  
DARAXTSIMON VA PARAGENETIK  
LANDSHAFT KOMPLEKSLARI**



556.  
V-62.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**A.K.URAZBAYEV, SH.LIBROIMOV**

**AMUDARYO HOZIRGI DELTASINING  
DARAXTSIMON VA PARAGENETIK  
LANDSHAFT KOMPLEKSLARI**

**MONOGRAFIYA**

-5126/x-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
**1-FILIALI**

**Toshkent  
"Ma'rifat"  
2024**

UO'K: 556.51/.54(282.255.1)

KBK: 26.222.5

U 62

**Urazbayev A.K., Ibroimov Sh.I. Amudaryo hozirgi deltasining daraxtsimon va paragenetik landshaft komplekslari. Monografiya.**  
-T.: "Ma'rifat", 2024. 136 bet.

Monografiyada Amudaryo hozirgi deltasida relyef plastikasi usuli asosida ilk bor ajratilgan kichik daltalarning daraxtsimon komplekslari va kollektor havzalarining havzaviy strukturasi tahlil qilindi. Delta Yer yuzida ajratilgan 9 ta kichik daltalar garchi daraxtsimon shaklga ega bo'lsa ham, ammo ular bir-biridan ichki strukturasi va tabiiy-geografik sharoitlarining dinamikasi bo'yicha farq qiladi. Kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari bir tomondan havzaning chegarasidan kollektor o'zani o'tgan markaz tomon o'zgarsa, ikkinchi tomondan esa havzaning yuqori qismidan quyi qismi tomon fizimli o'zgaradi. Shu bilan bir qatorda, Amudaryo hozirgi deltasining o'ng qirg'og'ida joylashgan kollektor tashlama -1 (KT-1), KT-3, KT-4 larning ichki strukturasi tahlil qilindi. Sug'oriladigan va sug'orilmaydigan hududlarning Yer resurslaridan oqilona foydalanishda struktura ta'limoti asosida daraxtsimon va paragenetik komplekslari rolining amaliy ahamiyati ko'rib chiqilib, ular ham monografiyada ilk bor tadqiq qilingan.

Ushbu monografiyadan geograflar, geomorfologlar, tuproqshunoslar, landshaftshunoslar, kartograflar, ekologlar, doktorant va magistrantlar foydalanishi mumkin.

UO'K: 556.51/.54(282.255.1)

KBK: 26.222.5

U 62

**Mas'ul muharrir:**

**B.A.Baxritdinov** – geografiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

**K.M.Boymirzayev** – geografiya fanlar doktori, professor

**F.T.Rajabov** – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy texnik kengashining tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma №6, 18 mart 2024 yil).

ISBN: 978-9910-765-78-0

© "Ma'rifat" nashriyoti, Toshkent, 2024 y.

## KIRISH

Jahon aholisini tabiiy resurslar bilan ta'minlash maqsadida landshaftlardan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy muhitda texnogen buzilish, cho'llanish, yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, tuproq degradatsiyasi va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchaymoqda. Bu muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar va birlashmalar turli ko'lamdagi ishlarni amalga oshirishmoqda. Shular qatoriga BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturiga kiritilgan chora tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda. Hududlarda iqlimning va yer osti hamda yer usti suvlarning oqimi ekologik va tabiiy geografik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazmay quymaydi, shu jumladan, Amudaryo hozirgi deltasidagi landshaft komplekslarini o'rganishni taqozo etadi.

Kichik daltalarning daraxtsimon va kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslarini tadqiq qilish o'z navbatida Amudaryo hozirgi deltasi meliorativ holatining hamda landshaft strukturasi bu komplekslar bilan aloqadorligini ochib berishda muhim rol uynaydi. Kichik daltalarning daraxtsimon landshaft komplekslari hududning tabiiy-geografik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, strukturaviy yaxlitlikni hosil qiladi. Kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari yer usti suv oqimi bilan bog'liq bo'lib, funksional yaxlitlikni hosil qiladi. Bu landshaft komplekslarini tadqiq qilishda ilk bor relyef plastikasi usuli qo'llanib, hududlardagi elementar landshaft guruhlarining aloqadorligi ochib beriladi va bu esa o'z navbatida hududning tabiiy-meliorativ sharoitini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda geoekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan ilmiy asosda foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning sho'rlanishi va cho'llanishiga qarshi kurashish, odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasini 2022-

2026 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha davlat dasturida "...Orolbo'yida xalqaro «Yashil iqlim» va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq degradatsiyasining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish, ...ekologik muhitni yaxshilash, yashil makon, Orolbo'yi hududlarni ekotizimni saqlash va yaxshi tomonga o'zgartirish..." yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, Amudaryoning hozirgi deltasi kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslariga ta'sir etuvchi geografik omillarning rolini aniqlashga doir maqsadli tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-sonli "2017-2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi, 2017-yil 27-noyabrdagi PQ-3405-sonli "2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"gi, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1031-son "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda "yashil qoplamalar" – himoya o'rmonzorlari barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

## I BOB. KICHIK DELTALARNING DARAXTSIMON VA SUG'ORILADIGAN HUDUDLARNING PARAGENETIK LANDSHAFT KOMPLEKSLARINI TADQIQ QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

### 1.1. Tabiiy geografik fanlar tizimidagi havzaviy usul va uning tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligini tadqiq qilishdagi roli

Tabiiy geografik fanlar tizimidagi havzaviy usul eng ko'p qo'llanilib kelinayotgan usullardan biri bo'lib, shu o'tgan davr ichida bu usul rivojlandi va taraqqiy etdi. Agar biz V.V.Dokuchayevni genetik tuproqshunoslik va landshaftshunoslik fanlarining hamda "Tabiat zonolari haqidagi" ta'limotning asoschisi deb bilsak, u shu bilan birgalikda havzaviy usulning ham asoschisidir. V.V.Dokuchayevning ilmiy ijodini har tomonlama tahlil qiladigan bo'lsak (I.L. Krupenikov, 1949), 1871 yil 13 dekabrda Peterburg universitetida yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasining mavzusi: "Kachna daryosi bo'ylab yotqiziqslarning hosil bo'lishi haqida" deb nomlanadi. Olimning fikri bo'yicha, Kachna daryosi havzasining yuqori qismidan quyi qismi tomon yotqiziqslarning mexanik tarkibi tartib bilan o'zgaradi, ya'ni daryoning yuqori qismida yirik mexanik tarkibga ega bo'lgan yotqiziqslar ustunlik qilsa, uning quyi qismida esa mayda mexanik tarkibli yotqiziqslar ko'pdir.

Kachna daryosining havzasi bo'yicha qazilgan razrezlarni tahlil qilib, u shunday xulosaga keladi: "Qazilgan har bir razrez yotqiziqslarning mexanik tarkibini tadqiq qilish uchun asos bo'ldi va daryo havzasi bo'yicha ular tartib bilan o'zgardir". Shunday qilib, V.V.Dokuchayev tabiiy geografik fanlar tizimidagi havzaviy usulga asos soldi va keyingi yillarda bu amaliyotga asoslangan ilmiy g'oya uning shogirdlari hamda mashhur tabiatshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi.


B.B.Polinov o'z tadqiqotlarida V.V.Dokuchayevning "Havzaviy usuli" ni har tomonlama rivojlantirdi. Havzaviy usulni olim XX asrning 30-yillarida o'zining geokimyoviy tadqiqotlarida keng qo'lladi. Landshaftlar geokimyosi fanida havzaviy usuldan foydalangan holda o'zining "O'zaro bog'liq" tahlilini ishlab chiqdi (rasm 1).

A, B punktlar havzaning yuqori qismida joylashgan bo'lib, V punktdagi landshaftning kimyoviy tarkibi A punktdagi landshaftning kimyoviy tarkibi bilan taqqoslanadi va bu ikki punktning kimyoviy aloqadorligi tahlil qilinadi. A<sub>1</sub>, B<sub>1</sub> noto'g'ri tanlangan punktlar bo'lib, ular havzaning o'rta qismida joylashgandir, ya'ni tahlil qilinadigan punktlar doimo havzaning yuqori, o'rta va quyi qismlarida joylanishi kerak.

Bunday olib qaraganda, tahlil qilinadigan punktlar albatta havzaning yuqori va quyi qismlarida joylanishi lozim, ya'ni B punkt A punktga nisbatan quyi joylashgan. Qisqa qilib aytganda, daryo geotizimidagi punktlarni joylashtirishda ularning havza elementlari bilan (yuqori, o'rta, quyi) aloqadorligi hisobga olinishi shart. Olimning yozishicha (Perelman, 1955), har bir havzadagi kimyoviy elementlarning migratsiyasini to'liq o'rganish uchun shu obyektidagi tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligini va elementar landshaft guruhlarining bog'liqligini tadqiq qilish lozim. Boshqacha aytganda, obyektidagi geokimyoviy landshaftlardagi kimyoviy elementlarning migratsiyasini havza asosida har tomonlama o'rgangandan so'nggina landshaftlarning dinamikasi haqidagi bilimga to'liq ega bo'lamiz. B.B.Polinov shunday deb yozadi: "Har bir daryo havzasi ikkinchi daryo havzasidan avvalambor landshaftlarning geokimyoviy tarkibi bo'yicha farq qiladi va bu farqni tadqiq qilishda "O'zaro bog'liq" tahlili alohida o'rinni egallaydi".

F.N.Milkov (1966) tabiiy geografiyadagi havzaviy usulni landshaftshunoslik faniga qo'llash natijasida tabiatdagi oddiy paragenetik landshaft kompleksini (jar havzasi) va murakkab paragenetik landshaft kompleksini (daryo havzasi) tadqiq qiladi.

F.N.Milkov shunday deb yozadi: "Daryo havzalari murakkab paragenetik landshaft kompleksini hosil qilgani holda bu havzada barcha tabiat komponentlari va landshaft birliklari tartib bilan qonunli o'zgaradi". Boshqacha aytganda, tabiatda regional va tipologik



1-rasm B.B.Polinovning daryo havzasidagi to'g'ri va noto'g'ri tanlangan aniqlagich punktlari (Perelman, 1955)

1.  - Suvayirgich chegarasi
2. A, B - To'g'ri tanlangan punktlar
3. A<sub>1</sub>, B<sub>1</sub> - Noto'g'ri tanlangan punktlar